XALQ DEPUTATLARI SHOFIRKON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-iyun VII-11-63-2-41-K/25 Shofirkon tumani

Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosi, daromadlari va xarajatlari rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida

Shofirkon tumani mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosi yuzasidan hisobotga ko’ra, amalda mahalliy budjet daromadlari 27817,6 mln. so’m yoki rejaga nisbatan ijrosi 100,6 foizga foizga ta’minlangan.

Hisobot davrida tuman mahalliy budjeti xarajatlari jami 37021,5 mln. so‘m amalga oshirilib, shundan ijtimoiy soha xarajatlari 16556,8 mln. so‘m yoki 44,7 foizni tashkil etgan.

Bunda, mahalliy budjetda ko’zda tutilgan birinchi darajali to’lovlarni va davlat dasturlariga asosan belgilangan tadbirlarni o’z vaqtida moliyalashtirishga asosiy e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 143 va 147-moddalarida budjet ijrosi jarayonida 2024-yil mahalliy budjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda budjet parametrlari doirasida xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27 va 126-moddalariga asosan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o’rinbosari N.Naimovning tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosi, daromadlari va xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan hisobotini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shofirkon tumani Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig‘i o’rinbosari N.Naimovning tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak ijrosi yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Budjet ijrosi jarayonida daromadlari va xarajatlari bo’yicha ko’rsatkichlar 1-2 ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Soliq inspeksiyasi (O.Muqimov):

budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Naimov), tuman G‘aznachilik xizmati (D.Jabborov):

- mahalliy budjet parametrlarida ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish ta’minlash.

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimi o‘ribosarlari va tegishli budjet tashkilotlari:

- tuman mahalliy budjetidan ajratilgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida belgilangan tartibda ishlatilishini ta’minlasin.

-infratuzilma obektlarida belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish va foydalanishga topshirilishini ta’minsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi (N.Sadulloyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

FAYZILLOYEV
ALISHER
ABDILLOYEVICH

Xalq deputatlari Shofirkon tumani
Kengashining
2025-yil 30-iyundagi
VII-11-63-2-41-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shofirkon tumani mahalliy budjetining 2025-yil 1-chorak daromadlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘m

Daromadlar turlari nomi	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi	Farqi	
				(+,-)	%
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0%
Aylanmadan olinadigan soliq	2 282,0	1 902,0	1 908,6	6,6	100,3%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 295,6	10 361,1	10 992,9	631,8	106,1%
Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	310,0	310,0	439,9	129,9	141,9%
Aksiz solig‘i jami					
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	2 786,0	4 786,0	3 454,5	-1 331,5	72,2%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 612,0	1 112,0	625,7	-486,3	56,3%
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 637,0	1 137,0	2 159,9	1 022,9	190,0%
Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 374,0	1 845,6	2 433,3	587,7	131,8%
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 507,0	4 507,0	4 523,6	16,6	100,4%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 254,0	1 254,0	748,3	-505,7	59,7%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 267,0	667,0	330,8	-336,2	49,6%
qishloq xo‘jaligi tashkilotlari (40%)	-431,0	-246,0	0,0	0,0	0,0%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar				0,0	0,0%
Davlat boji				0,0	0,0%
Yig‘imlar				0,0	0,0%
Jarimalar			172,4	172,4	0,0%
Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	15,0	15,0	27,9	12,9	185,7%
Boshqa tushumlar				0,0	0,0%
Daromadlar jami	**29 908,6**	**27 650,7**	**27 817,6**	**166,9**	**100,6%**

** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boqsharmasining bidirishnomalari asosida mahalliy byudjetga tushumlardan kelib chiqib, soliq turlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashining
2025-yil 30-iyundagi
VII-11-63-2-41-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Shofirkon tumani mahalliy budjetining 2025-yil xarajatlari ijrosi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

mln.so‘mda

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilari nomi	2025-yil 1-chorak asosiy ko‘rsatkichlari					O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-son (27.02.2025-yildagi 03-03/1-4456-son) yig‘ilish bayoniga asosan	
		Tasdiqlan-gan reja	O‘zgarti-rishlar *	Aniqlangan reja	Amalda ijrosi (kassa)	Ijrosifoiz da, %	Maqbullash-tirilgan past samarali xarajatlar	shundan, maqbullashti-rish hisobiga bo‘shab qolgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilgan **
	Shofirkon tumani bo‘yicha jami	**30 151,9**	**13 372,9**	**43 524,8**	**37 021,5**	**85,1%**	**2 214,4**	**170,2**
1	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi	6 942,5	10 380,0	17 322,5	14 639,5	84,5%	635,1	18,6
2	Madaniyat bo‘limi	2 085,1	-51,2	2 033,9	1 917,3	94,3%	137,9	
3	Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi	1 586,8	-50,2	1 536,6	1 482,4	96,5%	31,7	
4	Sport maktabi	2 325,9	-160,8	2 165,1	2 159,3	99,7%	1 132,0	135,9
7	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	600,4	-29,0	571,4	492,2	86,1%	55,4	
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 106,8	-60,7	1 046,1	904,1	86,4%	6,6	15,7
6	Suv yetkazib berish davlat muassasasi	310,0	0,0	310,0	310,0	100,0%		
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	762,4	-105,0	657,5	584,7	88,9%	85,5	
9	Tuman hokimligi	14 119,0	3 449,7	17 568,7	14 244,8	81,1%	121,2	
-	shundan, "Fuqarolar tashabbusi" jamg‘armasi	5 444,3	-55,0	5 389,3	5 369,3	99,6%		
-	Mahalla budjeti jamg‘armasi	710,5	50,0	760,5	293,9	38,7%		

-	Zaxira jamg‘armasi	535,0	-153,0	382,0	200,7	52,5%		
10	Prezident Admistratsiyasiga qarashli tashkilotlar	233,2	0,0	233,2	215,9	92,6%	4,3	
11	Kengash kotibiyati	79,8	0,0	79,8	71,3	89,4%	4,8	

** Xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlari, tuman hokimining tegishli farmoyishlari hamda viloyat iqtisodiyot va moliya vazirligining bidirishnomalariga asosan kiritilgan o‘zgartirishlar.*